QADIMGI XORAZM ME'MORCHILIGI TARIXI

Ro'zimov Asror Shuxrat o'g'li

asrorbekrozimov@gmail.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi

Annatatsiya: *Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm me'morchiligi tarixi oid ma'-lumotlar, shahar qurulishi, joylashgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Xorazmdagi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim shaharlar haqida ma'lumotlar berilgan*

Annotation*: This article provides information about the history of ancient Khorezm architecture, urban construction, its geographical location, and significance. It also contains information about economically and socially important cities in Khorezm.*

Аннатация: *В данной статье можно ознакомиться с информацией об истории архитектуры Древнего Хорезма, градостроительстве, географическом расположении и значении городов. Также представлены сведения об экономически и социально важных городах Хорезма.*

Kalit so'z: *Xorazm, "Avesto", Kat, Ko'hna Urganch, Ko'zaliqir,"Islom Renes-seansi", "Bayt al-hikma", al-Muqaddasiy, al- Ma'mun, al-Mu'tasim, Afrig'*

Key words: *Khorezm, "Avesta", Kath, Kunya Urgench, Kozaliqir, "Islamic Renaissance", "Bayt al-Hikma" (House of Wisdom), al-Muqaddasi, al-Ma'mun, al-Mu'tasim, Afrigh.*

Ключевое слово: *Хорезм, «Авеста», Кат, Куня-Ургенч, Козаликир, «Исламский Ренессанс», «Байт аль-Хикма» (Дом мудрости), аль-Мукаддаси, аль-Мамун, аль-Мутасим, Африг.*

KIRISH

Qadimgi Xorazm yerlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar miloddan oldingi

IV asrgacha (Makedoniyalik Aleksandr) istilosigacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyodagi shaharlarning asosiy qismi devor bilan o‘rab olingan katta istehkom shaklida bo‘lib, devorlarining uzunligi 7-12 km bo‘lgan. Shu davrdan to arablar istilosigacha nafaqat Xorazmda balkiy O‘rta Osiyoda bunchalik yirik shaharlar qurilmagan.

Ko‘zaliqir chor atrofi mudofaa devor o‘rab olingan ulkan shahar bo‘lib, uning maydoni 40 gektarni egallagan. Ko‘zaliqirda yashovchi aholi uzoq yillar davomida chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shu sababdan qal’ada aholi chorva mollarini saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus xonalar barpo etishgan. Ko‘zaliqir shahri hozirgi Turkmaniston Respublikasi Oqtepa (Akdepe) viloyatida joylashgan. Ushbu shahar taxminan miloddan avvalgi VI-IV asrlar oralig‘ida Xorazmdagi eng yirik markazlardan biri hisoblangan.

Abu Rayhon Beruniyning asarlarida keltirilishicha Qadimgi Xorazm markazla-shgan davlat sifatida o‘z davlat tiliga, hamda yil hisobiga ega bo‘lgan. Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo‘shinlarilari bostirib kelishganda (mil.avv IV asr) mahalliy taqvim hisobi bilan X asr bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Kat shahridan Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tganligi qayt etiladi. Shu sababli arab tarixchilari bu shaharni tilga olganlarida boy va yirik savdogarlar shahri sifatida e’tirof etishadi. Shu o‘rinda eslatib o‘tish kerakki, Kat shahri milodning III asridan to X asrgacha Xorazmshohlar davlati vazifasini bajargan.

Tuproqqal’a milodiy I asrdan VI asrgacha Qadimgi Xorazmning yirik madaniyat markazlaridan biri sifatida tilga olinadi. Shahar tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib shimoldan janubga qarab to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida cho‘zilgan. Shaharning tomonlari 500x350 metr kenglikda joylashgan. Shahar devorlari xom g‘ishtdan qurilgan va shimoli-g‘arbiy burchagida 180x180 metrlik uchta minorali shahar arki joylashgan. Ark yaqinidagi maydonda bir-biri bilan tutashgan binolar joylashgan. Shahar markazda asosiy binosi-ibodatxona joylashgan. Undan shahar darvozasiga olib chiquvchi markaziy ko‘cha o‘tgan. Bu ko‘chadan o‘ng va chap tomonga ketgan kichik-kichik

ko‘chalarda turarjoylar joylashgan. Tuproqqal’adan devoriy rasm namunalari va 100 dan ortiq charm hamda yog‘ochga bitilgan yozuvlar topilgan. Bu rasmlar o‘zida o‘sha davrlardagi diniy va mafkuraviy qarashlarni ifodalagan.

Kat shahri o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar hisoblanadi. Bu shahar turli davrlarda har xil nomlar bilan atalgan bo‘lib, Qadimgi Xorazm tilida “qishloq” degan ma’noni anglatgan. Kat shahri Amudaryoning sharqiy qirog‘ida joylashgan bo‘lib, bu yerda xorazmshoh qarorgohi bunyod etilgan. Xorazm taxtiga Afrig‘iylar sulosi kelishi bilan bu shaharning ahamiyati va nufuzi yanada ortib ketadi. Abu Rayhon Beruniy asarlarida shaharda joylashgan qasrning baland devorlari 20 km uzoqlikdan ham ko‘rinib turidi degan ma’lumot keltirilgan.Tarixiy manbalarning darak berishicha, shahar arablar bosqiniga qadar va undan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Kat shahri haqida sharq va arab tarixchilari o‘z asarlarida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tishgan. Jumladan Al-Muqaddasiy o‘z asarlarida Kat shahrining shahriston deb atalganligini va kattaligi jihatdan Nishopurga tenglashtirilganligini yozib qoldiradi. O‘rta Osiyo hududi arablar tomonidan egallangandan keyin ham Kat eng muhim savdo-sotiq markazi sifatida e’tirof etiladi.

XULOSA

Xorazm diyorida qadim zamonlardan o‘ziga xos madaniyat an’analari shakllangan. Xorazmliklar cho‘l mintaqalarida yashagan bo‘lishlariga qaramay o‘zlarining mehnatsevarligi evaziga ko‘plab shaharlarga asos soldilar. Bu mintaqada yerga ishlov berishning turli yangi texnalogiyalari sinab qo‘rilgan va aynan Xorazm iqlimi va tabiatiga xos bo‘lgan dehqonchilik ekinlari, bog’lar va so‘lim go‘shalarni bunyod etadilar. Qadimgi Xorazm diyorida shahrlar me’morchiligi ayniqsa xayratlanarlidir. Bu hududda joylashgan Kat, Tuproqqal’a, Jonbosqa’la, Hazorasp, Qalajiqqal’a kabi shaharlar uzoq yillar davomida nafaqat Xorazmning balki, O‘rta Osiyoning eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahrlari sifatida qayt etiladi. Mintaqada joylashgan shaharlarning qurilish me’morchiligiga nazat tashlaydigan

bo‘lsak, birinchi galda tashqi dushmandan himoyalanish asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Yana shuni joyizki qal’alar atrofida dehonchilik qilish uchun unumdor tuproqqa ega bo‘lgan dalalar nihoyatda ko‘p bo‘lgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Rayahon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. “Fan”. Toshkent, 1968-yil
2. S.Tolstov “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”. Toshkent, 1964-yil
3. Sh.Karimov R.Shamsutdinov. “Vatan tarixi”. “O‘qituvchi”. Toshkent, 1997-yil.
4. M.Ahmedov “O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi” “O‘zbekiston”. Toshkent, 1995-yil